**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Jizzax DPU rektori
professor Sh. Sharipov
"___"________2022 yil

# "GLOBALLASHUV ASOSLARI"
fanining o'quv dasturi

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim

**Ta'lim yo'nalishi:** 60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

**JIZZAX – 2022**

| Fan/modul kodi<br>351GAM04<br>(Bakalavriat) | | O‘quv yili<br>2022-2023 | Semestr<br>3 | ECTS - Kreditlar<br>4 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta’lim tili<br>O‘ZBEK | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | **Globallashuv asoslari** | 60<br>Ma’ruza - 30<br>Seminar - 30 | 60 | 120 |

2

**I. Faning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlar bilan qurollantirish hamda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash ko‘nikma va malakasini shakllantirish hamda jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy sohalarida o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishi sharoitida ro‘y berayotgan globallashuvning mazmun va mohiyatini, salbiy va ijobiy jihatlarini yoshlarga tushuntirish, ularda Vatanga sadoqat ruhini tarbiyalab borish.

**Fanning vazifalari:**

globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlarini;

- globallashuvning salbiy va ijobiy jihatlarini;
- globallashuv jarayoni ro’y berishining usul va vositalarini;
- globallashuvning namoyon bo‘lish sohalarini;
- globallashuvning mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’sirini
- fan va ta’lim globallashuvi sharoitida ta’limning vazifalarini;

global ma’naviy tahdidlarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasidagi vazifalarni o‘rganishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. “Globallashuv asoslari” fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari (2 soat)**

Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari va uni o‘rganishning ilmiy-nazariy zaruriyati. «Globallashuv asoslari» fanining tadqiqot doirasi, uning maqsad-vazifalari, hal etishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar. Dunyoning hozirgi mafkuraviy manzarasi. Globallashuvning nazariy asoslari. Globallashuv - universallashuv jarayoni sifatida.

Globallashuv tushunchasi. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lish yo‘llari. Globallashuv amalga oshishining turli xil vositalari. Globallashuv yuz berishida internet, badiiy adabiyot, OAV, ta’lim, hamkorlik va boshqalar. Globallashuv universallashuv jarayoni sifatida. Globallashuv to‘lqinlari. Globallashuvning asosiy davrlari.

**2-mavzu. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari (2 soat)**

Globallashuvning jamiyat hayotidagi ijobiy tomonlari. Globallashuvning jamiyat hayotidagi salbiy tomonlari. Globallashuv va ilm-fan, texnika taraqqiyoti masalalari. Insoniyat hayotida jamiyat hayotining turli sohalarida hamkorlikning kuchayishi, uning turli jihatlari. Insoniyatga tahdidlar va ularni hal etishda hamkorlikning roli.

**3-mavzu. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi (2 soat)**

Siyosiy jarayonlardagi integratsiya. O‘zbekistan va jahon. O‘zbekiston va BMT. Milliy ma’naviy merosni asrashda YUNESKO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik. Globallashuv jarayonlari tizimida demokratiya. Demokratiya, Sharqona demokratiya tushunchalari. Demokratiya va ma’naviyat. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi vazifalar. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy manfaatlar. Harakatlar strategiyasi va yaqin qo‘shnichilikka asoslangan tashqi siyosatning mohiyati.

**4-mavzu. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va milliy manfaatlar (2 soat)**

Xalqaro mehnat taqsimoti. Insoniyat ehtiyojlarining o‘sib borishi. Tabiiy qazilmalarni qazib olish, qayta ishlash, takror ishlab chiqarishda hamkorlik. Jahon xo’jaligi. Transmilliy

korporatsiyalar. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida xalqaro tashkilotlarning roli. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning dolzarb masalalari. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O‘zbekiston manfaatlari.

**5-mavzu. Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati (2 soat)**

Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati. Madaniy muammolar va milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlash zaruriyati. Madaniy globallashuvga axborot texnologiyalarining ta’siri. Globallashuv sharoitida ta’lim sohasidagi vazifalar. «Ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy tazyiqlar. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta’lim tizimi oldidagi vazifalar. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy merosni asrash masalalari.

**6-mavzu. Axloqning globallashuvi (2 soat)**

Axloqiy munosabatlarning globallashuvi insoniyat evolyutsiyasining qonuniyati sifatida. Moslashuvchanlik va o‘zaro bir-birini tushunish axloq globallashuvining asosiy tamoyillaridan biri. Shaxs axloqiy sifatlarining shakllanishi intellektning erkinligi bilan bog‘liqligi. Axloqiy sifatlarning shakllanishiga davlat boshqaruvining ta’siri. Axloq globallashuvi zarurligi va muqarrarligining keskinlashayotgan global ziddiyatlar bilan bog‘liqligi. Madaniyatning globallashuvi yagona umuminsoniy madaniyat shakllanishi jarayoni sifatida. Badiiy madaniyatning globallashuvning integral sintezi bosqichiga kiritishning o‘ziga xos xususiyatlari.

**7-mavzu. Globallashuv va axborot texnologiyalari (2 soat)**

Axborot texnologiyalari globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlari. Globallashuvni ta’min etuvchi axborot vositalari. Internet axborot globallashuvining o‘ziga xos vositasi. Jamiyat axborotlashuvining global tendensiyalari. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo‘llari. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi va uning salbiy tomonlari. Axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida axborot xavfsizligi masalalari.

**8-mavzu. Dinlararo munosabatlarning globallashuvi (2 soat)**

Dinning madaniyat fenomeni sifatida o‘ziga xos xususiyatlari. Islom dinida globallashuvning talqini. So‘fizmda global muammolarning ko’tarilishi. Dinlarning rivojiga globallashuvning ta’siri. Din globallashuvining mezonlari. Din globallashuvida xalqning iroda va erkinligi masalasi. Dinlararo aloqaning o’ziga xos xususiyatlari. Globallashuvning an’anaviy dinga ta’siri. Diniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida diniy bag’rikenglikni asrash masalalari. Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqidan kelib chiqadigan vazifalar.

**9-mavzu. Fan globallashuvi (2 soat)**

Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari. Globallashuv sharoitidagi fanning funksiyalari; tabiiy va ijtimoy sharoitlarga moslashuvchanlik funksiyasi; sotsiumning atrof -muhitga optik xulq-atvorini shakllantiruvchi variativ funksiyasi; fanning global tizimlarini kuzatuvchisi va ijtimoiy, tabiiy jarayonlarining nazoratchisi sifatidagi monitor funksiyasi; atrof-muhit haqidagi olgan bilim va axborot beruvchi informativ funksiyasi.

**10-mavzu. Ta’limnig globallashuvi sharoitida g’oyaviy tarbiya masalalari (2 soat)**

Ta’lim globallashuvining ziddiyatli xarakteri. Iqtisodning bilimga bog‘liqligi-yagona ta’lim tizimini yaratishning zarurati. Ta’limning globallashuvi-mamlakatning milliy manfaatlariga jiddiy yondashuvining muhim omili. Ta’limning rivojlanishida axborotlashuvning roli. Ta’limning globallashuvida internet va masofali o‘qitishning roli. Ta’lim globallashuvining rivojlangan industrial davlatlar va uchinchi darajali mamlakatlar ziddiyatining keskinlashuvi bilan bog‘liqligi. Milliy maktab ta’lim tizimida vorisiylikni ta’minlash, multimadaniy universitet ta’limini rivojlantirish omillari. Ta’limning globallashuvida o‘quv dasturlaridagi muvofiqlikning ahamiyati.

**11-mavzu. Sportning globallashuvi (2 soat)**

Sportiing global jarayonga aylanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Sport millatlar va davlatlararo o‘zaro aloqalarni o‘rnatish vositasi. Sportning globallashuviga olimpiya harakatining ta’siri. Olimpiya harakatining transmadaniy va transmilliy harakat sifatida xalqaro sport musobaqalari orqali mafkurasini insoniyat ongiga yetkazishdagi roli. Sport

globallashuvining ijobiy xarakteri. Sport globallashuvining salbiy xususiyatlari. Sportning globallashuvida gegemoniyaning namoyon bo’lishi. Sport harakatining o‘ziga xos xususiyatlari. Nogironlar sporti globallashuvining ma’naviy -axloqiy xarakteri. Sportning ijtimoiy-madaniy maqsadlarini rivojlantirishning global ahamiyati.

**12-mavzu. Jinoyatning globallashuvi (2 soat)**

Tashkillashgan jinoyatning global masshtablari. Texnik modernizatsiyalashgan jinoyat: sputnik aloqa, internet, hozirgi zamon vositalari. Giyohvandlik moddalarni tarqatish va iste’mol qilishning globallashuvi. Qurol savdosi, diniy etnik asosdagi lokal konfliktlarning natijasi. Terrorizm globallashuvining qurol savdosiga ta’siri. Qurol savdosi jinoyat globallashuvidagi yangi bog‘ini. Nolegal migratsiya va uning globallashuvi. Odam savdosi - trafikaning globallashuvi. Antikvariat bozorining globallashuvi. Jinoyatning globallashuvi dunyo xufyona iqtisodiy rivojlanishining asosiy vositasi. Jinoyat globallashuviga qarshi kurash vositalari.

**13-mavzu. Migratsiya jarayonlarining globallashuvi (2 soat)**

Kontinentlararo migratsiyaning globallashuvi. Aholi globallashuvining mehnat bozorining o‘sishiga ta’siri. Migratsiya jarayonlari globallashuvining yangi va tabiiy resurslarni egallashdagi roli. Migratsiya jarayonlarining mehnat malakasining oshirishdagi roli. Jahon iqtisodiy tizimi globallashuvining oliy malakali kadrlar migratsiyasining shakllanishiga ta’siri. Oliy malakali va malakasiz kadrlar migratsiyasidagi farqlar. Nolegal migratsiyaning globallashuvi (qochoqlar, mehnat migratsiyasi) va uning oldini olish usul va vositalari.

**14-mavzu. Globallashuv va lokallashuv (2 soat)**

Globallashuvning ishlab chiqarishdagi tub islohotlarga ta’siri. Global mehnat bozori. Globallashuvning lokal madaniyatning shakllanishiga global ta’siri. Glokalizatsiyaning ikki yoqlama xarakteri. Glokalizatsiya global integratsiya va global strukturalarga lokal javob orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida. Lokal madaniyatning globallikka ziddiyatli xarakteri. Glokalizatsiya global impulslarga lokal javob sifatida. Globallashuv va lokallashuvning o‘zaro ta’siri.

**15-mavzu. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari (2 soat)**

Globallashuv jarayonlarida millat. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari. Globallashuvning millat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari. Demografik globallashuv, ma’naviyat va qadriyatlar. Ommaviy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davrida milliy o‘zlikni anglash masalalari.

**III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**

| | Seminar mashg‘ulot mavzulari | |
|---|---|---|
| 1 | **“Globallashuv asoslari” fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari**<br>**Reja:**<br>1. “Globallashuv” tushunchasi. Globallashuvning nazariy asoslari.<br>2. Globallashuv asoslari fanining tadqiqot doirasi, obyekti, predmeti va maqsad-vazifalari<br>3. Globallashuv amalga oshishining turli xil vositalari. | 2 |
| 2 | **Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari**<br>**Reja:**<br>1. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lish yo‘llari.<br>2. Globallashuvning jamiyat hayotidagi ijobiy tomonlari.<br>3. Globallashuvning jamiyat hayotidagi salbiy tomonlari<br>4. Insoniyatga tahdidlar va ularni xal etishda hamkorlikning roli. | 2 |
| 3 | **Siyosiy jarayonlarning globallashuvi**<br>**Reja:**<br>1. “Siyosat” va “siyosiy jarayonlar” tushunchasi. Siyosiy | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | globallashuvning mohiyati.<br>2. Siyosiy jarayonlardagi integratsiya. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlari.<br>3. Globallashuv jarayonlari tizimida demokratiya: “demokratiya”, “sharqona demokratiya” va “demokratiya eksporti” tushunchalari<br>4. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy manfaatlar.<br>5. Harakatlar strategiyasi va yaqin qo‘shnichilikka asoslangan tashqi siyosatning mohiyati | |
| | 4 | **Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va milliy manfaatlar**<br>**Reja:**<br>1. “Iqtisodiy jarayonlar globallashuvi” tushunchasining mazmuni, mohiyati.<br>2. Xalqaro mehnat taqsimoti. Insoniyat ehtiyojlarining o‘sib borishi.<br>3. Transmilliy korporatsiyalar va ularning iqtisodiy jarayonlar globallashuvida tutgan o‘rni<br>4. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O‘zbekiston manfaatlari. | 2 |
| | 5 | **Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati**<br>**Reja:**<br>1. “Madaniyat” tushunchasi va madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati.<br>2. Madaniy globallashuvga axborot texnologiyalarining ta’siri.<br>3. «Ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy tahdidlar.<br>4. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta’lim tizimi oldidagi vazifalar. | 2 |
| | 6 | **Axloqning globallashuvi**<br>**REJA:**<br>1. Axloqiy munosabatlarning globallashuvi insoniyat evolyutsiyasining qonuniyati sifatida.<br>2. Moslashuvchanlik va o‘zaro bir-birini tushunish axloq globallashuvining asosiy tamoyillaridan biri.<br>3. Axloq globallashuvi zarurligi va muqarrarligining keskinlashayotgan global ziddiyatlar bilan bog‘liqligi. | 2 |
| | 7 | **Globallashuv va axborot texnologiyalari**<br>**Reja:**<br>**1.** Axborot texnologiyalari globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlari.<br>**2.** Jamiyat axborotlashuvining global tendensiyalari.<br>**3.** Internet axborot globallashuvining o‘ziga xos vositasi.<br>**4.** Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi.<br>**5.** Axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida axborot xavfsizligi masalalari | 2 |
| | 8 | **Dinlararo munosabatlarning globallashuvi**<br>**Reja:**<br>1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o‘ziga xos hususiyatlari.<br>2. Dinlar rivojiga globallashuvning ta’siri. Din globallashuvining me’zonlari.<br>3. Islom dinida globallashuvning talqini.<br>4. Diniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida diniy bag’rikenglikni asrash masalalari. | 2 |
| | 9 | **Fan globallashuvi**<br>**Reja:** | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 1. Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari.<br>2. Globallashuv sharoitidagi fanning funktsiyalari.<br>3. Fanning tijoriy va notijoriy rivojlanish tendensiyalari | |
| | 10 | **Ta'limnig globallashuvi sharoitida g'oyaviy tarbiya masalalari**<br>**Reja:**<br>1. Ta'lim globallashuvining ziddiyatli xarakteri. Ta'lim va tarbiyaning global bozor iqtisodi sharoitiga moslashishining zarurligi.<br>2. Ta'limning globallashuvi-mamlakatning milliy manfaatlariga jiddiy yondashuvining muhim omili.<br>3. Ta'limning rivojlanishida axborotlashuvning roli. Ta'lim globallashuvida internet va masofali o'qitishning roli. | 2 |
| | 11 | **Sportning globallashuvi**<br>**Reja:**<br>1. Sportning global jarayonga aylanishining o'ziga xos xususiyatlari.<br>2. Sport millatlar va davlatlararo o'zaro aloqalarni o'rnatish vositasi.<br>3. Sportning globallashuviga transmadaniy va transmilliy harakat sifatida olimpiya harakatining ta'siri.<br>4. Sport globallashuvining ijobiy va salbiy hususiyatlari. Sportning globallashuvida gegemoniyaning namoyon bo'lishi. | 2 |
| | 12 | **Jinoyatning globallashuvi**<br>**Reja:**<br>1. Tashkillashgan jinoyatning global masshtablari.<br>2. Giyoxvandlik moddalarni tarqatish va iste'mol qilishning globallashuvi.<br>3. Qurol savdosi va uning diniy -etnik asosdagi konfliktlarga ta'siri<br>4. Terrorizm globallashuvining qurol savdosiga ta'siri. | 2 |
| | 13 | **Migratsiya jarayonlarining globallashuvi**<br>**Reja:**<br>1. Kontinentlararo migratsiyaning globallashuvi. Aholi globallashuvining<br>2. mehnat bozorining o'sishiga ta'siri.<br>3. Migratsiya jarayonlari globallashuvining yangi va tabiiy resurslarni egallashdagi roli.<br>4. Migratsiya jarayonlarining mehnat malakasining oshirishdagi roli.<br>5. Nolegal migratsiyaning globallashuvi (qochoqlar, mehnat migratsiyasi) va uning oldini olish usul va vositalari. | 2 |
| | 14 | **Globallashuv va lokallashuv**<br>**Reja:**<br>1. Globallashuvning lokal madaniyatning shakllanishiga global ta'siri.<br>2. Glokalizatsiya global integratsiya va global strukturalarga lokal javob orasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida.<br>3. Lokal madaniyatning globallikka ziddiyatli xarakteri.<br>4. Globallashuv va lokallashuvning o'zaro ta'siri. | 2 |
| | 15 | **Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari**<br>**Reja:**<br>1. Globallashuv jarayonlarida millat.<br>2. Globallashuvning millat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari.<br>3. Demografik globallashuv, ma'naviyat, qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash masalasi. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 4. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davrida milliy o‘zlikni anglash masalalari. | |
| | **Jami:** | | 30 |

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’limning turli xil shakllari mavjud bo‘lib, bunda asosiy e’tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya’ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o‘qib o‘rganishi va shu yo‘nalish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularni chuqur o‘rganish;

faol va muammoli o‘qitish usulidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari

| | **Mustaqil ta’lim mavzulari** | Soatlari hajmi |
|---|---|---|
| | 1. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lish yo‘llari. | 2 |
| | 2. Dunyoning hozirgi mafkuraviy manzarasi | 2 |
| | 3. Globallashuvning jamiyat hayotidagi ijobiy tomonlari. | 2 |
| | 4. O‘zbekistan va jahon hamjamiyati | 2 |
| | 5. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi | 2 |
| | 6. Demokratiya, sharqona demokratiya tushunchalari. | 2 |
| | 7. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasida yaqin qo‘shnichilikka asoslangan tashqi siyosatning mohiyati. | 2 |
| | 8. “Demokratiya eksporti” tushunchasi | 2 |
| | 9. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi | 2 |
| | 10. Transmilliy korporatsiyalarning faoliyati va ularning iqtisodiy imkoniyatlari. | 2 |
| | 11. Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati. | 2 |
| | 12. «Ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy tazyiqlar. | 2 |
| | 13. Axborot texnologiyalari globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlari. | 2 |
| | 14. Globallashuvni ta’min etuvchi axborot vositalari. | 2 |
| | 15. Internet - axborot globallashuvining o‘ziga xos vositasi. | 2 |
| | 16. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi va uning salbiy tomonlari. | 2 |
| | 17. Dinlararo munosabatlarning globallashuvi | 2 |
| | 18. Islom dinida globallashuvning talqini. | 2 |
| | 19. Dinlarning rivojiga globallashuvning ta’siri. | 2 |
| | 20. Diniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida diniy bagrikenglikni asrash masalalari. | 2 |
| | 21. Globallashuv sharoitidagi fanning funksiyalari | 2 |
| | 22. Ta’limning globallashuvida internet va masofali o‘tishning roli. | 2 |
| | 23. Sportiing global jarayonga aylanishining o‘ziga xos xususiyatlari | 2 |
| | 24. Jinoyatgning globallashuvi | 2 |
| | 25. Terrorizm globallashuvining qurol savdosiga ta’siri. | 2 |
| | 26. Nolegal migratsiya va uning globallashuvi. | 2 |
| | 27. Jinoyat globallashuviga qarshi kurash vositalari. | 2 |
| | 28. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o’zlikni anglash masalalari. | 2 |

<table>
<tr><td></td><td>29. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.</td><td>2</td></tr>
<tr><td></td><td>30. Mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalari</td><td>2</td></tr>
<tr><td></td><td>Jami:</td><td>60</td></tr>
<tr><td>3</td><td colspan="2">V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• globallashuv tushunchasi, mohiyati, jamiyat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari, globallashuvning ijobiy va salbiy jixatlari, jamiyat hayotidagi globallashuvning namoyon bo‘lish xususiyatlari, globallashuvning ma’naviyatga ta’siri to‘g‘risida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;<br>• “Globallashuv asoslari” fani oldidagi vazifalar, globallashuv jamiyat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari, jamiyat hayotida globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, globallashuvning milliy rivojlanishga o‘tkazayotgan ta’siri va uning oqibatlari, fan va ta’limning globallashuvi sharoitida g‘oyaviy tarbiya masalalari, globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari, global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vazifalarini tushuntirib bera olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;<br>• “Ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi turli ma’naviy tahdidlardan ko‘zlangan maqsadlarni anglab yetish, milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlarini tahlil etish, mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalarini amalda qo‘llay bilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.</td></tr>
<tr><td>4.</td><td colspan="2">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:<br>– ma’ruzalar;<br>– interfaol keys-stadilar;<br>– seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>– guruhlarda ishlash;<br>– taqdimotlar qilish;<br>– individual loyihalar;<br>– jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>– Debat<br>– Davra suhbati</td></tr>
<tr><td>5.</td><td colspan="2">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.<br><br>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg‘ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br><br>Jami seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br><br>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma’ruza mashg‘ulotlari o‘quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o‘tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta’lim topshirig‘i kiradi.<br><br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to‘plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.<br><br>Yakuniy nazorat<br><br>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o‘tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o‘zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to‘plagan talabalar fanni o‘zlashtirgan hisoblanadi.</td></tr>
<tr><td>6.</td><td colspan="2">Asosiy adabiyotlar:</td></tr>
</table>

1. Otamurotov S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2008 yil.
2. Qaxxorova Sh. Global ma'naviyat — globallashuvning g'oyaviy asosi. T.: Tafakkur nashriyoti, 2009 yil.
3. M.Aminova- Globallashuv asoslari. O'quv qo`llanma. Fan va texnologiya 2016.
4. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.- T.: Movaraunnahr, 2016.
5. B.Nazarov. Globallashuv:badiiy talqin, zamon va qahramon. T.:Fan 2018.
6. Sadulla Otamuratov: Globallashuv: Millatni asrash mas'uliyati. T.:O`zbekiston.
7. Jumaniyozov X.S., Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2019.
8. Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2020
9. Shodmonov. B.I. O'zbekistonda ilmiy salohiyatli yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish omillari. T.:Islom tafakkuri, 2020.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

10. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: 2021.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O'zbekiston:, 2016
14. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom etgirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.:O'zbekiston.2017.
15. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.:O'zbekiston.2018.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil
17. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
18. Tashmetov T.X."Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi ahamiyati". "Science and Education" Scientific Journal, 1(7), 2020. 617-624.
19.. Tashmetov, T. X. "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta'lim-tarbiyaning o'rni". Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 2021. 1047-1051.
20. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. T.:O'zbekiston. 1998.
21. Abdullatif kori Xoshimjon qori o'g'li. Zalolatga ketmang! Xizbut-tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. T.: Movarounnaxr, 2003.
22. Abdurahmonov A., Boydadaev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, Namangan, 2001.
23. Boboev., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. T.:Yozuvchi. 1999.
24. Gafarli M.S., Kasaev A.Ch. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik - taraqqiyot asosi. -T.:O'zbekiston. 2001.
25. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.:Muharrir. 2009.
26. Otamurotov S. Globallashuv va millat. T. 2008.
27. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. T.2013.
28. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot.T.:Akademiya. 2008.
29. Tulepov A. IShID fitnasi. -T.:Movarounnarr. 2015
30. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. T.: Ma'naviyat, 2006.

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari:**<br>1. http://www lex.yz<br>2. http:// www.senat.uz<br>3. http://www.gov.yz<br>4. http://www.mtdp.yz<br>5. http:// www.parliament.uz<br>6. http ://www. ziyonet.uz |
| **7.** | **Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas`ul:**<br>B.Toshboyev (PhD), A.Turayev (PhD) |
| **9.** | **M.Muhammadsiddiqov –** O'zXIA professori, siyosiy fanlari doktori<br>**A.Saitqosimov –** Jizzax DPU, "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" kafedrasi professori, falsafa fanlar doktori |